

QIZLAR - MILLAT KELAJAGINING TARBIYACHISIDIR

Baratova Hulkar Panji qizi

*Toshkent davlat pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya  
fakulteti 201 guruh talabasi*

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan kuni kecha imzolangan «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonunda pedagogning ijtimoiy maqomi xususida so‘z yuritilib: “... ta‘lim va tarbiya sohasidagi kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma‘lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma‘naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxs pedagogdir deb yozilgan<sup>31</sup>. Shu ma‘noda, talaba qizlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalash ishiga davlat ahamiyatiga molik masala sifatida yondashish lozim. Shuningdek, ushbu Qonunda pedagog, uning maqomi, sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si masalalariga ham alohida e‘tibor berilganligi, ushbu maqomga javob beruvchi bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash ishiga jiddiy yondashuvni talab etadi.

Bu jarayonni sifatli tashkil etishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyasi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash ishida bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to‘ldirib va kentaytirib o‘zlashtirishlarini talab etadi. Bu talab asosida talaba qizlarni millat kelajagining tarbiyachisi sifatida kamolga yetkazishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish talab etiladi.

Mazkur holatda talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning bir qancha imkoniyatlari, jumladan, auditoriya mashg‘ulotlari, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar hamda pedagogik amaliyot imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etadi. Bu jarayonda bir qator holatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq: maqsadni aniq belgilab olish; mavzudan chetga chiqmaslik; talaba qizlarning faollik ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratish; mashg‘ulot natijadorligini ta‘minlash.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati katta. Bunda ma‘ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarini innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid ayrim holatlarni ko‘rib chiqamiz.

“SMART” texnologiyasi ayni paytda texnologiya olamida keng qo‘llaniluvchi ibora bulib, Specific (o‘ziga xos), Measurable (o‘lchab bo‘ladigan),

<sup>31</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Педагогнинг мақоми тўғрисида”ги Қонуни 3 модда




Attainable (erishib bo‘ladigan), Relevant result-oriented (dolzarb), Time framed (aniq muddatli) so‘zlarining qisqartmasidan olingan. Specific (o‘ziga xoslik, aniqlik) – talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni muhim ahamiyatga hamda tizimli ravishda tashkil etiladigan faoliyat jarayonida erishiladigan maqsadga egaligi bilan ajralib turadi. Erishiladigan maqsad sifatida bo‘lajak o‘qituvchining olgan nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olishi sinovdan o‘tkaziladi. Measurable (o‘lchab bo‘ladigan) ta’limiy-tarbiyaviy jarayon boshlanishidan oldin va o‘tib bo‘linganidan so‘ng olinadigan natijalar mezonlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun talaba qizlarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarligi darajalari hisobga olindi. Bo‘lajak mutaxassislarining tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlar asosida natijadorlik tahlil qilindi hamda kerakli xulosalar chiqarildi. Attainable (erishib bo‘ladigan) – talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir talablar asosida va maqsadga erishish nuqtayi nazaridan to‘g‘ri tashkil etilishi oldindan bashoratlangan natijaga erishish imkonini berdi. Talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonining avval passiv va keyinchalik faol tarzda tashkil etilishi natijalarning yaxshi bo‘lishiga zamin tayyorladi. Har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyati bo‘yicha tegishli xulosalar chiqardi. Relevant result-oriented - dolzarb, erkinlashgan kabi ma’nolarni bildirib, bu – talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga puxta tayyorlashni shakllantirish va rivojlantirish, o‘z kasbiy mahorat darajalarini yanada oshirish, kasbiy akmeologiyaga erishish yo‘lida erkin va mustaqil ta’lim olishlari va o‘z ustilarida muntazam, ijodiy ishlashlarini kafolatladi. Talaba qizlar tarbiyaviy faoliyatga tayyorlanish jarayonida portfoliolarni to‘ldirib borishdi. Oxirgi natijadorlik –maqsadga erishilganlik darajalari ta’minlandi. Time framed (aniq muddatli) – talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning tizimli va izchil tarzda tashkil etilishiga erishildi. Jarayon davomida bajariladigan ishlarning aniq muddatlari belgilandi. Har bir topshiriqning o‘z vaqtida va samarali bajarilishi “Ustoz-shogird” tizimi bo‘yicha biriktirilgan ustozlar tomonidan nazorat qilib borildi. Faoliyat mobaynida bajarilgan vazifalar talaba qizlar portfoliolida saqlandi va baholashda foydalanildi.

Seminar mashg‘ulotida geymofikatsiya o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning maqsad talaba qizlarni fikrlash, o‘ylash, tahlil qilish kabi aqliy operatsiyalarni yanada faollashuviga turtki bo‘lishi bilan birga, odatdagi darslarda yo‘l qo‘yiladigan tanqiddan qo‘rqish, xato qilish singari stressini yo‘qotdi, shuningdek, kayfiyatni ko‘tarib, guruh bilan ishlashga imkon beradi.



Bu o‘z navbatida, o‘quv materialini muammosiz o‘zlashtirish va mustahkamlash imkoniyatini ta‘minladi (2 -rasmga qarang):

**SEMINAR MASHG‘ULOTLARIDA GEYMOFIKATSIYA O‘YIN  
TEKNOLOGIYASI FOYDALANISH**



**2-rasm. Geymofikatsiya o‘yin texnologiyasidan seminar mashg‘ulotida foydalanish**

Auditoriya mashg‘ulotlarida talaba qizlarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda texnologiyalaridan tizimli, muntazam ravishda foydalanish quyidagi natijalarni olish imkonini berdi.

1. Talaba qizlarda yangiliklarni o‘rganish, o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoq, xohishning ortgan.
2. Talaba qizlarda yangiliklarni o‘rganishga, o‘zlashtirishga bo‘lgan motivatsiyaning uyg‘ongan.
3. Yangi amaliy-nazariy g‘oyalar yoki tadqiqotlarning paradigmasi va ishlanmalari bilan ishlash malakasining ortgan.
4. Malakali, tajribali o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishning paydo bo‘lganligi.
5. Zamonaviy innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish ma‘lumotlar bazasining yaratilganligi.

Ushbu fasldagi fikrlarimizni muxtasar qilishda Sh.S.Sharipovaning<sup>32</sup> ushbu fikrlarini keltirish o‘rinli deb bildik: “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida ta’lim jarayonini rivojlantirishning yana bir jihati ta’lim jarayonida tashabbusni o‘z zimmasiga oladigan, o‘zining kasbiy maqsadlarini ongli tarzda (shakllangan ehtiyoj tarzida) aniq belgilab, ma’suliyat bilan yangi va optimistik qarashlari asosida innovatsiyalarga tayyor turadigan faol va qodir pedagoglarga bog‘liqdir”.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.
3. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzayeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2022.176b.

---

<sup>32</sup>Sharipova D., Fuzailova G.S. va boshq. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. // O‘quv uslubiy qo‘llanma. “Farg‘ona” nashri1ti, 2010 yil – 172 b.

